



**MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**A. AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**



**JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI**

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INTEGRATSION JARAYONLAR INNOVATSIYASI

p.f.f.d (PhD) A.O‘tayev
TIPI, Pedagogika fakulteti,
filol.f.n. Sh.Haydarov
TIPI, Pedagogika fakulteti,

Annotatsiya: maqolada maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda integratsion jarayonlar innovatsiyasi to‘g‘risida fikr yuritilgan hamda ushbu masalaga doir muallif yondoguvlari taqdim etilgan.

Tayanch tushunchalar: ta‘lim, tarbiya, bilim, integratsiya, innovatsiya, jarayon, uzluksiz, savod, mantiq, hisob, ijtimoiylashtirish, faoliyat, ko‘nikma.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatimiz uzluksiz ta‘limida integratsion jarayonlarni kuchaytirish va unda innovatsion texnologiyalarga asoslanish vazifalari qo‘yilgan [1]. Shu jihatdan maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim integratsion jarayoni innovatsiyasi masalasini tahlil qilish dolzarb bo‘lib turibdi. Mazkur o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e‘tiboringizni tortamiz.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim integratsiyasi xususiyatlari. Mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim 3-6 yoshli bolalarni dastlabki bosqichda ijtimoiylashtirish, tarbiyalash hamda maktab ta‘limiga tayyorlash vazifalarini bajaradi [2]. Boshlang‘ich ta‘lim esa o‘quvchilarning aniq, tabiiy va gumanitar fanlar asoslari bo‘yicha savodxonlik, hisoblash, ta‘svirlash va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini tarkib toptirish vazifasini amalga oshiradi [3]. Shu jihatdan maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim integratsiyasida quyidagi xususiyatlar mavjudligini ta‘kidlab o‘tish lozim:

- 1) tushunchalar berish bo‘yicha integratsiya;
- 2) tarbiya jarayoni bo‘yicha integratsiya;
- 3) bolalarni faoliyatga tayyorlash bo‘yicha integratsiya.

“Integratsiya” tushunchasi o‘zaro bog‘liqlik, mantiqiy to‘ldiruvchanlik va yagona yondoshuv ma‘nolarini anglatadi [4]. Shu ma‘noda maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim jarayonida tushunchalar berish bo‘yicha o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Unga ko‘ra, maktabgacha ta‘limda tarbiyalanuvchilarning bilim olishi va ko‘nikmalar majmui shakllantiriladi, boshlang‘ich ta‘limda esa o‘quvchilarga dastlabki bosqichda o‘quv fanlari kesimida bilim berish, o‘zlashtirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari tarkib toptiriladi. Bu jarayonda maktabgacha ta‘limda tarbiyalanuvchilarning bilim olishga tayyorgarlik va mustaqil faoliyat ko‘nikmalari yuqori darajada shakllantirilsa, boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirish va ko‘nikmalardan foydalanish layoqatlari talab darajasida tarkib topadi. Aynan mana shu hol maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limning o‘qitish bo‘yicha mantiqiy bog‘liqlikka ega ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta‘limda tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy ongini tartibga solish, ularni ijtimoiylashtirish va axloqiy fazilatlarini korreksiyalash ishlari amalga oshiriladi, chunki bolalar oilalardagi turli sharoitlar tufayli mazkur masalalar bo‘yicha har xil darajada bo‘ladi. Boshlang‘ich ta‘limda esa bevosita o‘quvchilarning tarbiya asoslarini o‘zlashtirish, ularda individual axloqiy fazilatlarini shakllantirish va

jamoaparvarlik ko'nikmasini tarkib toptirish vazifasi bajariladi. Bu jarayonlardagi integratsion xususiyatlar shundan iboratki, maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilar tarbiyalanishga ruhiy va amaliy jihatdan tayyorlansa, boshlang'ich ta'limda bevosita o'quvchilar tarbiya asoslarini o'zlashtiradi. Shu sababli maktabgacha va boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni bo'yicha ham ichki mantiqiy bog'liqlik mavjuddir.

Maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilar ta'lim va amaliy faoliyatga tayyorlanadi, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar bevosita ta'lim olish asoslarini o'zlashtiradi va amaliy faoliyat ko'nikmalariga rioya qilishni o'rganadi. Bu o'rinda integratsion xususiyat shundan iboratki, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini faoliyat asoslarini o'zlashtirishga tayyorlaydi va boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini faoliyat asoslaridan foydalanish ko'nikmasi bilan qurollantiradi. Bu jarayon mazkur ta'lim bosqichlarininng bir-birini to'ldiruvchanlik tamoyiliga asos qilishga tayaniladi. Buning natijasida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ta'lim oluvchilarni faoliyatga tayyorlash masalasida bir-birini takrorlamaslik jarayoni kelib chiqadi.

E'tibor berilsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonlarida integratsiya ko'rinishlari o'ziga xos xususiyatga egadir.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim integratsion jarayonida innovatsion yondoshuv. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston sharoitida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim integratsion jarayonlarida innovatsion yondoshuvlariga asoslanish taqoza etilmoqda. Chunki innovatsion yondoshuvlar bu ta'lim bosqichlaridagi integratsion bog'liqlikni yangilab, takomillashtirib borish imkrniyatini beradi [5]. Shu jihatdan mazkur masalada quyidagi innovatsion yondoshuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) ta'lim va tarbiya dasturlarini yangilab borish;
- 2) ta'lim va tarbiya metodikalarini zamoniyashtirib borish;
- 3) o'zlashtirish jarayonini yangicha asosda tashxislab borish.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonlarida ta'lim va tarbiya dasturlari o'quv yili kesimida yangilab borilishi kutilgan samarani beradi. Unga ko'ra, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim dasturlarini yagonalashtirilgan hamda mantiqiy izchillikka asosan yangi mavzular bilan takomillashtirib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilar ijtiomiylashtirilsa, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijtimoiy faoliyat asoslari bilan qurollantiriladi. Buning natijasida har o'quv yili yakunida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, maktabgacha va boshlang'ich ta'limning ta'lim va tarbiya dasturlari yangilanib boradi. Har ikkala ta'lim bosqichida ham har bir o'quv yilida o'ziga xos innovatsion yondoshuv tarkib topadi.

Ta'lim va tarbiya metodikalari maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonida zamon talablariga moslashtirib borilishi muhim innovatsion yondoshuvdir. Bunda tushuntirish yoki tarbiyalash jarayonida qo'llaniladigan metodikalar ta'lim bosqichlarida bir-birini takrorlamasligi kerak. Masalan, har ikkala ta'lim bosqichida ham o'yin metodikasidan foydalaniladi. Biroq, boshlang'ich ta'limda o'yin metodikasi maktabgacha ta'limda qo'llanilgan o'yin metodikasiga nisbatan o'quvchilarning xususiyatlariga mos ravishda nisbatan murakkabroq va rivojlantiruvchi asosga ega bo'lishi kerak. Bu metodikalarni qo'llashga doir o'ziga

xos innovatsion yondoshuvlardan biridir. Shu jihatdan har ikkala ta'lim bosqichlarida ham metodikalarni qo'llashda o'ziga xoslik bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilarning ta'lim va tarbiya asoslarini tashxislashda ularni rag'batlantirish innovatsiyasidan foydalanish, boshlang'ich ta'limda esa o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatgichlarini baholash innovatsion tashxislash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga rag'batlantirish yondoshuvi ularning o'zlashtirish ko'rsatgichlarining yuqori bo'lishini ta'minlaydi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini baholash esa ularni bilim va ko'nikmalarga moslashuvchan shaklda rivojlanishini tarkib toptiradi. Shu sababli rag'batlantirish va baholash tizimlari bu ikki ta'lim jarayonida tashxislashni xolis olib borish imkoniyatini beradi.

Diqqat qilinsa, maktabgacha va boshlang'ich talim integratsion jarayonlarida innovatsion yondoshuvlar farqli hamda bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlarga egadir. Shu sababli mazkur masalaning oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan kasbiy o'zlashtirilishi ularning faoliyatga tayyorlik kompetensiyalarini kuchaytiradi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonlarida innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonlarida muntazam innovatsiyalardan foydalanib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu masalada quyidagilar ahamiyat ega ekanligini eslatib o'tish joiz:

1) maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonlarida yangicha rivojlanib borish tarkib topadi;

2) maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonlariga yangiliklarni birgalikda joriy etib borish imkoniyatiga ega bo'linadi;

3) maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonlarida umumiy faoliyat samaradorligiga erishiladi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonlarida yangicha rivojlanish shu bilan belgilanadiki, ta'lim va tarbiyani amalga oshirishda bu ikki ta'lim jarayonining individual xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Natijada mazkur ta'lim jarayonlarida ta'lim va tarbiyani amalga oshirishning yangi yo'nalishlariga ega bo'linadi. Bu muhim amaliy natijalardan biridir.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonlariga yangiliklarni birgalikda joriy etib borish imkoniyatlari kengayadi. Mazkur ta'lim bosqicharining murabbiylar va pedagoglari o'rtasida o'zaro hamkordik qilish, tajriba almashish hamda mahorat ayirboshlash tendensiyalari tarkib topadi. Bu hol ushbu ta'lim jarayonlarida innovatsion hamkorlikning o'ziga xos imkoniyatlari ko'lamini naomyon qiladi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonlarida innvatsiyalardan foydalanishning samaradorligi kuchayadi. Bunda har ikki ta'lim jarayonining sharoitlari va muhitlaridan birgalikda foydalanish, yangicha yondoshuvlarni hamkorlikda tajriba-sinovlardan o'tkazish hamda innovatsion mahoratlarni mamlaktimiz miqyosida o'zaro bog'liqlikda amaliyotga joriy etish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Natijada mazkur ikki ta'lim jarayonlarida innovatsiyalardan foydalanishning faoliyat samaradorligiga erishishdagi imkoniyatlar kengayib boradi.